



SOTSILOGIYAGA OID TERMINLAR VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MASALASI

Muhammadaliyev Mirzohid

Namangan davlat universiteti

Lingvistika (ingliz til) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada sotsiologiyaga oid terminlar va ularni tartibga solish masalasi misollar asosida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: termin, sotsiologik termin, noverbal muloqot, terminologiya, sostavli termin.

“Davlat tili haqidagi qonuni qabul qilinishi va mamlakatimizning mustaqillikka erishish ona tilimizni rivojlantirish, uni mavqeini oshirishda yuksak omil bo'ldi.

Qonun o'zbek tilining barcha sohalariga, shu jumladan, atamashunoslik-terminologiyaga ham yangi nuqtai nazardan qarashni taqazo etadi.

Ma'lumki, davlat tili haqidagi qonuni qabul qilish jarayoni va qonun qabul qilingandan keyin 2-3 yil davomida o'zbek tilidagi atamalarni, ayniqsa baynalminal atamalarni qayta ko'rib chiqishga bo'lgan intilish kuchaydi”.¹

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda ijtimoiy taraqqiyotda ro'y berayotgan beqiyos o'zgarishlar, fan va texnika, madaniyat va san'at, sotsiologiyada bo'lyapgan o'zgarishlar to'xtovsiz yangi terminlarning yuzaga kelishini taqazo etyapti.

Bunday terminlarning katta qismini birikma terminlar tashkil etadi: *demografik o'sish, idora qilish, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy mobillik, ijtimoiy pozitsiya, ijtimoiy rol, ijtimoiy stratifikatsiya, ijtimoiy evolyutsionizm, ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy harakat, qarindoshlik munosabatlari, dramaturgik model, demokratik sentralizm, demokratik elitizm, ijtimoiy transformatsiya, noverbal muloqot, empirik tadqiqot, harbiylashgan tafakkur*. Hozirgi paytda sostavli terminlar yasash termin yaratishning asosiy usuli bo'lib qolmqa.

O'zbek tilining sotsiologiya terminologiyasidagi ko'p qismli, birikma terminlarning yasashida ko'proq quydagi usullar foydalaniladi: sifat – ot : *noformal munosabatlar, kognativ kelishmovchilik, postindustrial jamiyat, milliy davlat, harbiy boshqaruv, qonuniy hokimiyat*. Sifat – ot – ot : *ijtimoiy nazorat agentligi, ijtimoiy harakat turi*. Ot – sifat – ot : *fuqarolik huquqiy harakati, o'limning umumiy darajasi*. Ot – ot : *kambag'allik madaniyati, abalitik induksiya, fuqarolik jamiyati, sinflar nizosi, iste'molchi madaniyati, noformal munosabatlar*. Bunday terminlarning ayrimlari ko'p sostavli bo'lgani uchun ularni amalda qo'llashda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirmqda.

Termin iloji boricha qisqa, sodda bo'lishi kerak. Aks holda tushunchaning lekisik ma'nosini emas, teskari ma'nosa aylanib qoladi. Sotsiologiya soha terminologiyasida ham tilning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olinmagan noqulay, murakkab terminlar

¹ H.Bektemirov “Mustaqillik davri atamashunosligi: muammolari va yechimlari”(maqola) – “O'zbek tili atamashunosligi.” Toshkent : ”Fan”, 2002, 6- bet.



mavjud. Masalan, qayta tarbiyalash uchun harakat, multi chiziqli evolyutsiya, tug‘ulishning umumiy darajasi.

Har qanday sostavli termin bitta aniq formada, aniq bir formada yasalgan bo‘lishi kerak. Aks holda, bir terminning turli variantlari yuzaga keladiki, bu hol muloqotda chalkashlik tug‘diradi. Masalan, *tug‘ulishning umumiy darajasi – umumiy tug‘ilish darajasi – daraja umumiy tug‘ulish* kabi.

Ba’zi hollarda ” tavsifiy” ifoda bilan birikma terminlarning chegarasini farqlash qiyin bo‘ladi. Umuman, tavsifiy ifodalarning termin sifatida qo‘llamaslik kerak, chunki ular fikrni ta’kidlash uchun xizmat qiladi.

Tuzilishi jihatidan cho‘ziq, murakkab terminlarni qisqartirish ko‘pincha abbreviaturalar yasash orqali amalga oshiriladi. Ularni terminlashgan tuzilish bilan almashtirib bo‘lmaydi. Endilikda o‘zbek tilining o‘zida birikma terminlarini ixchamlashtirish, ularning qisqa varianti abbreviaturalar yasash masalasi kun tartibiga qo‘yilmog‘i lozim.

Terminologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda ham, e‘lon qilgan monografiya, dissertatsiya ishlarida ham terminologiya sinonimiya hodisasining bo‘lishi inkor qilingadi, terminologiya sinonimdan holi bo‘lishi ta’kidlanadi. Ammo, birikma terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishidagi murakkablik boshqacharoq yondashuvni talab qiladi. Birikma tarkibidagi komponentlar soni ikkidan ortgandan keyin informatsiya almashinuv jarayoni qiyinlashadi. Shunga ko‘ra, ularning to‘liq variantini qisqartma variantar bilan almashtirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida sinonimik qatorni yuzaga keltiradi.

O‘zbek tilining sotsiologiya terminologiyasi deyarli o‘rganilmagan. O‘zbek tilida sotsiologiya terminologiyasining yasaliş, qo‘llanish va yozilishida har xilliklar uchraydi. Bu ilmiy termin, ayniqsa, sotsiologiya terminlari uchun qo‘yilgan zamonaviy talablarga javob bermaydi. O‘zbek tilidagi sotsiologik adabiyotlarda ko‘plab sinonimik terminlar qo‘llanmoqda. Terminlar sinonimiyasi masalasini hal qilish, o‘zbek tili sotsiologiya terminologiyasini tartibga solish lingivist va sotsiolog hal etish kerak bo‘lgan masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуваҳоб Мвдвалиев. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. Б. 382
2. Antoni Giddens. Sotsiologiya. (tarjimonlar N.Mamatov., J.Begmatov). – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 841.
3. N.Abrkrombi, S.Xill, B.S.Terner. “Социологический словарь”. 2000. В.412.